

# «O'zkimyosanoat» AJ vakillarining hududlarda fermerlar va dehqon xo'jaliklari bilan manzilli uchrashuvlari davom etmoqda

// 28.02.2025

<https://uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkmyosanoat-aj-vakillarining-hududlarda-fermerlar-va-dehq>



Bu galgi amaliy muloqot Andijon viloyatining Shahrixon tumani fermerlari va dehqonlari bilan o'tkazildi.

Viloyat hokimi ishtirokida tumanda birinchi chigit qadalgani munosabati bilan o'tkazilgan tadbirda «O'zkimyosanoat» AJ rahbariyati hamda soha mas'ullari kimyo korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mineral o'g'itlarning sifati va xususiyatlari, mineral o'g'itlarni birjada chegirma narxlarda sotish mexanizmlari haqida atroflicha tushunchalar berdilar.



Shuningdek, fermer va dehqonlar uchun qulaylik yaratish maqsadida hududlarda faoliyat olib borayotgan korxonalarning ijara (vakolatli) omborlari va ularning imkoniyatlariiga alohida to'xtalib o'tildi.



O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan mazkur tadbirda viloyat va tuman hokimlarining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinosarlari, qishloq xo'jaligi boshqarmalari rahbarlari, fermerlar, tadbirkorlik sub'yektlari, tegishli tijorat banklari hamda «O'zkimyosanoat» AJ tarmoq korxonalarini mutasaddilari ishtirok etishdi.



Shu bilan birga "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan viloyatning Paxtaobod tumanida istiqomat qiluvchi kam ta'minlangan oilalar hoidan xabar olinib, e'tibor ko'rsatildi.



**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**